

TUPROQQAL'A YODGORLIGI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Temirbayeva Tumaris Tleubaevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 2-
bosqich talabasi

Annotatsiya: Tuproqqal'a yodgorligi qadimgi Xorazm vohasining eng muhim arxeologik markazlaridan biri hisoblanadi. U milodiy III–IV asrlarda Xorazm shohlarining siyosiy va madaniy markazi sifatida xizmat qilgan. Qal'aning murakkab me'moriy tuzilishi, devorlarining balandligi, ichki saroy va xo'jalik binolari qadimgi Xorazm davlatining yuqori darajadagi shaharsozlik an'analari va mudofaa tizimidan dalolat beradi. Tuproqqal'adan topilgan devoriy suratlar, haykaltaroshlik namunalariidan tortib, sopol buyumlar va yozuvlarga bo'lgan topilmalar o'sha davr jamiyatining diniy qarashlari, san'at darajasi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur yoritib beradi. Yodgorlik O'rta Osiyo xalqlarining davlat boshqaruvi, diniy e'tiqodlari va madaniy merosini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: "Yer shahri", Sergey Pavlovich Tolstov, Kiyiklar zali, Qirollar zali, G'alaba zali, 200 ga yaqin xo'jalik va turar-joy, Kushonlar, Sosoniylar

Annotation: The Tupraqqala monument is one of the most important archaeological centers of the ancient Khorezm oasis. It served as the political and cultural center of the Khorezm kings in the 3rd–4th centuries AD. The complex architectural structure of the fortress, the height of its walls, the inner palace and farm buildings testify to the high urban planning traditions and defense system of the ancient Khorezm state. The finds from Tupraqqala, from wall paintings and sculptures to ceramic objects and inscriptions, deeply shed light on the religious views, level of art, and socio-political life of the society of that time. The monument is an invaluable source in the study of state governance, religious beliefs, and cultural heritage of the peoples of Central Asia.

Keywords: "City of the Earth", Sergey Pavlovich Tolstov, Deer Hall, Kings Hall, Victory Hall, about 200 farms and settlements, Kushans, Sassanids

Аннотация: Тупраккала — один из важнейших археологических центров древнего Хорезмского оазиса. В III–IV веках н.э. она служила политическим и культурным центром хорезмских царей. Сложная архитектурная структура крепости, высота её стен, внутренний дворец и хозяйственные постройки свидетельствуют о высоких традициях градостроительства и оборонительной системе древнего Хорезмского государства. Находки из Тупраккалы, от настенной живописи и скульптуры до керамических изделий и надписей, глубоко проливают свет на религиозные взгляды, уровень искусства и социально-политическую жизнь общества того времени. Памятник является бесценным источником для изучения государственного управления, религиозных верований и культурного наследия народов Центральной Азии.

Ключевые слова: «Город Земли», Сергей Павлович Толстов, Олений зал, Царский зал, Зал Победы, около 200 хозяйств и поселений, Кушаны, Сасаниды

Tuproq-qal'a yoki "Yer shahri" - Qadimgi Xorazmning eng qimmat va mahobatli yodgorliklaridan biridir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida, Bo'ston qishlog'idan 12 km masofada joylashgan¹. Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining boshqa ko'plab yodgorliklari kabi ushbu yodgorlik ham taniqli arxeolog va tarixchi Sergey Pavlovich Tolstov tomonidan topilgan. Bu qidiruv ishlari 1938 yilda sodir bo'lgan. Shaharning maydoni 120 gektarni tashkil etadi va keyinchalik ma'lum bo'lishicha, bir vaqtlar bu yerda mudofaa devori va kvadrat minoralar bilan o'ralgan shahar va hashamatli qal'a-saroy bo'lgan. Asosiy qism: Tuproqqal'a qadimiy Xorazm sivilizatsiyasining eng yirik va mashhur yodgorliklaridan biridir. Bir vaqtlar muhtasham qal'a qadimiy shaharning o'zagi bo'lib, eramizning II-III asrlarida Xorazm shohlarining qarorgohi bo'lgan. Bu yerda, mudofaa devori orqasida dushman hujumlaridan himoya galereyalari bo'lib, ko'plab ko'chalar va savdo rastalari joylashgan, shuningdek markazda keng old ko'cha mavjud bo'lgan.

Qadimgi shahar shunchalik katta ediki, uning hududi 200 ga yaqin xo'jalik va turar-joy binolaridan iborat 10 ta kvartalni oz ichiga olgan². Har bir kvartalda o'zlarining kichik markazlari bo'lib, ularda ziyoratgohlar va hunarmandchilik binolari joylashgan. Shaharda 2,5 mingdan ortiq aholi yashagan, ularning yarmi saroy qarorgohida ishlagan. Saroy alohida e'tiborga loyiqdir. Uning qanchalik ulug'vor va hashamatli ekanligini tasavvur qilish qiyin emas, chunki uning balandligi 40 metrga yetishi mumkin va saroy haykaltaroshlik va rasmlar bilan bezatilgan 150 xonadan tashkil topgan saroydan iborat bo'lgan.

Tuproq qal'a majmuasi - shahar, yuqori saroy va shimoliy majmuadan iborat. Shahar - maydoni 500 × 350 m. to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, balandligi 8-9 metrli mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Bundan tashqari, shahar ko'plab yassi burchakli to'rtburchak minoralarga ega bo'lib, yon atroflari keng xandaq bilan o'ralgan. Shahar darvozasi murakkab inshoot shaklida qurilgan bo'lib, ushbu darvozadan butun shahar bo'ylab qal'agacha kengligi 9 m bo'lgan markaziy ko'cha o'tgan. Otashparastlar ibodatxonasida ko'plab o'choqlar aniqlangan. Yodgorlikdagi yana bir binoda qo'chqor shoxlari, shisha idishlar, gips haykallar parchalari ko'rinishidagi oltin bilan ishlov berilgan bilaguzuklar va boshqa zargarlik buyumlari topilgan.

Yuqori saroy - kesilgan piramida shaklidagi saroyning asosiy massivi hom g'ishtdan qurilgan bo'lib, fasadi vertikal bo'rtib chiqqan naqshlar tizimi bilan bezatilgan³. Tahorat xonasi, qurol yarog'lar saqlash xonasi sifatida ishlatilgan taxminan 100 taga yaqin inshootlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Yuqori qavatda tavba qilish uchun qurbonliklar qilinadigan ibodatxona mavjud bo'lgan. Saroyning asosiy qismini ibodat va marosim xonalari majmuasi egallagan. Inshootning devorlari naqshlar bilan, unga tegishli beshta zal

¹ "Arxeologlar hikoya qiladi" Mualliflar jamoasi. T. 1976

² Tolstov S.P. "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab" T-1964

³ Sharqshunoslik 2-son. T-1991

esa rangbarang sopol barelyeflar bilan bezatilgan. Ushbu bezaklardan oz qismi bizgacha yetib kelgan.

“Qirollar zali” qurbonlik qilinadigan maxsus xonada Xorazmning 23 qirollari tasvirlari (haykal shaklidagi) oldida olov yonib turar edi. “G’alaba zali” sultonlarga qirollik sharafi nishonini topshirish marosimini tasvirlayotgan, savlat bilan o’tirgan qirollar va ularning ustida girdikapalak bo’layotgan ma’budalar barelyeflari bilan bezatilgan. “Qora tanli jangchilar zali” tokchalarida tik turgan qirollarning barelyef tasvirlari mavjud edi. Qora tanli jangchilarning kichik haykallari qirollarga karnay chalib ehtirom keltirardi. “Kiyiklar zali” ushbu hayvonlarning haykallari bilan bezatilgan bo’lib, ularning tepasida griffin tasvirlari bor edi. Ushbu turdagi bezaklar ehtimol, o’simlik va hayvonot dunyosida hayot bardavomligiga sababchi bo’lgan. “Niqob bilan raqs tushiladigan” zal misteriyalar (diniy mavzudagi dramalar) namoyish etish uchun mo’ljallangan bo’lib, zal devorlarida raqsga tushayotgan erkak va ayollarning tasvirlari qisman saqlanib qolgan. Asosiy tokchada, tashqi ko’rinishiga ko’ra, yirtqich maxluq bilan ma’budaning tasviri mavjud bo’lgan. Qolgan ikki katta tokchalarda ehtimol, unga yo’ldosh ma’budlar joylashishgan. Zalning markazida qurbonlik qilinuchi supa bo’lgan.

Eng muhim topilmalardan biri bu Qadimgi Xorazm hujjatlari hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan yozma hujjatlar davlat boshqaruvi va ma’muriy tizim haqida muhim ma’lumot beradi. Ayrim hujjatlarda soliqlar, xo’jalik mahsulotlari va ishchi kuchi hisob-kitoblari qayd etilgan. Bu esa qadimgi Xorazmda iqtisodiy nazorat va hujjatchilik tizimi ancha rivojlanganini ko’rsatadi. Terida yozilgan qo’lyozmalarda, turli xil narsa va buyumlarning kelishi, eng qadimiysi Xorazm asrining (milodiy I asrning boshlari) 188-252 yillari bo’lgan bir necha sanalar qayd etilgan⁴. Daraxtga yozilgan qo’lyozmalarda esa, bir necha Xorazmiylar tarkibiga kiruvchi ishga layoqatli (ozod va qul) erkaklarning ro’yxatlari yozib qoldirilgan. Shimoliy saroy majmuasi. Ushbu majmua - Tuproqqal’ shahridan taxminan 100 km. uzoqlikdagi, maydoni 12 gektar keladigan bir necha binolar jamlanmasidir. Ushbu binolardan biri oq va qora fondagi, katta va kichik rozetta va boshqa gullar bilan bezatilgan rangbarang devoriy tasvirlar, shuningdek, pastki oyoq va ko’ylakni tasvirlagan haykal qoldiqlariga ega 50 ta xonadan iborat.

Tuproqqal’aning shimoliy sharqiy qismida maxsus ko’tarma supa (balandligi-14 m, maydoni-80*80 m) ustiga xom g’ishtdan saroy qurilgan. Unga yondosh qilib balandligi 25 m li 3 ta minorasi bo’lgan ark binosi (maydoni-40*40 m) bunyod etilgan. Arkka sharq tomonidan ko’tarma yo’lak orqali kirilgan. Tuproqqal’ada 100 ga yaqin turar joy, xo’jalik binolari va 8 ta saroy xonalari qazilgan. Tuproqqal’a qadimiy Xorazm davlatining poytaxtlaridan biri bo’lib, u yerda shohlar yashagan va davlat ishlarini boshqargan. Yodgorlikdan topilgan surat va buyumlar Xorazmda san’at, me’morchilik, yozuv va hunarmandchilikning yuqori darajada rivojlanganini isbotlaydi.

Devoriy rasmlarda e’tiqodiy timsollar va mifologik obrazlarning tasvirlanishi xalqning diniy qarashlari haqida ma’lumot beradi. Tuproqqal’a orqali qadimgi Xorazmning Kushonlar, Sosoniylar va boshqa davlatlar bilan bo’lgan aloqalari ham o’rganiladi. Shuningdek, shahardagi markaziy ko’chalar va savdo rastalari ichki savdo

⁴ Istoriya Xorazma. T. Fan-1973

rivojlanganini ko'rsatadi. Aholi dehqonchilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va chorvachilik mahsulotlari bilan savdo qilgan.

Bu esa Tuproqqal'aning iqtisodiy jihatdan rivojlangan shahar bo'lganini ko'rsatadi. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi shaharning madaniy taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Turli hududlardan kelgan savdogarlar va ustalar madaniy almashinuv jarayonining kuchayishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, bu yerda Kushon hukmdorlari Vima- Kadfiz, Xuvishka hukmronligi davriga oid tangalar, sherning oltin boshi va barelyef tayyorlash uchun alebaster shakllari topilgan. Qazishmalar davomida olimlar Tuproqqal'aning qiziqarli tafsilotini ta'kidlashdi: ellinistik uslubidagi badiiy rasmlar nafaqat saroy binolarini, balki oddiy fuqarolarning turar-joylarini ham bezatgan, bu esa qadimiy shaharning yuksak madaniyatidan dalolat beradi.

Qal'a uch qavatdan iborat bo'lgan. Uning xonalaridan ko'plab yodgorliklar topilgan: oziq-ovqat qoldiqlari (suyaklar, urug'lar), idishlarning bo'laklari va butun qismlari, turli xil idishlar, zargarlik buyumlari, haykallar (eng mashhur haykallardan biri - Ruhoniy haykali), rasmlar va hatto qadimgi Xorazm qo'lyozmalari⁵. Tuproqqal'aning janubi-sharq tomonidan 30 km uzoqlikda joylashgan boshqa arxeologik yodgorliklar ham mavjud bo'lib, ular qatoriga 'Ellik qal'a vohasi'ning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lgan Qo'yqirilgan qal'a kiradi. Yana bir shu kabi manzilgoh Ayoq qal'adir. Xorazm poytaxti miloddan avvalgi 305-yildan so'ng, afrig'iylar sulolasi davrida Kat (zamonaviy Beruniy) shahriga o'zgartirilgan, ammo Tuproqqal'a shahri milodiy VI asrgacha gullab-yashnashda davom etgan.

Tuproqqal'a yodgorligi qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining siyosiy, ijtimoiy, madaniy hamda diniy hayotini kompleks tarzda aks ettiruvchi noyob arxeologik manba sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu yodgorlikning me'moriy tuzilishi, xususan, saroy majmualari, mudofaa devorlari va ichki hovli tizimi o'sha davrda shakllangan davlat boshqaruvi, ijtimoiy tabaqalanish hamda markazlashgan hokimiyatning mavjudligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, devoriy rasmlar, haykaltaroshlik namunalari va bezak san'ati elementlari orqali qadimgi Xorazm aholisining estetik qarashlari, diniy e'tiqodlari hamda marosimiy an'analari haqida muhim tasavvur hosil qilish mumkin.

Arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan yozuv namunalari, xo'jalik buyumlari va kundalik hayotga oid topilmalar esa jamiyatning iqtisodiy faoliyati, savdo aloqalari va hunarmandchilik darajasining ancha rivojlanganini ko'rsatadi. Bu jihatlar Tuproqqal'aning faqatgina siyosiy markaz emas, balki madaniy va iqtisodiy hayotning muhim o'chog'i bo'lganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, saroy devorlarida aks etgan sahnalar hukmdorlar ideologiyasi, diniy tasavvurlar va davlat ramzlari tizimini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tuproqqal'a yodgorligining ilmiy qiymati shundaki, u orqali nafaqat qadimgi Xorazm tarixining ayrim bosqichlari, balki butun Markaziy Osiyo hududida shakllangan sivilizatsion jarayonlar, madaniyatlararo aloqalar va tarixiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu yodgorlik hududiy sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri, siyosiy markazlarning shakllanishi hamda madaniy merosning uzviy davomiyligini tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu

⁵ Arsikovskiy A. "Arxeologiya asoslari" T.-1970

bois Tuproqqal'a bugungi kunda ham tarix, arxeologiya va madaniyatshunoslik sohalarida fundamental tadqiqotlar olib borishda asosiy obyektlardan biri hisoblanadi. Uni chuqur o'rganish, saqlash va ilmiy muomalaga kiritish O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazish, milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash hamda jahon ilm-faniga munosib hissa qo'shish nuqtai nazaridan nihoyatda dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xorazm tarixi" Urganch-1997
2. Matniyozov S, Sotlikov A, "Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm" Xorazm-1999
3. Tolstov S.P. "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab" T-1964
4. Azimboy Sa'dullayev. "Xorazm Ma'mun akademiyasi" Xiva-2000
5. Sharqshunoslik 2-son. T-1991
6. Istoriya Xorazma.T. Fan-1973
7. "Arxeologlar hikoya qiladi" Mualliflar jamoasi. T. 1976
8. Arsikovskiy A. "Arxeologiya asoslari" T.-1970